

TA'LIM SIFATINI OSHIRISHNING PSIXOLOGIK JIHATLARI

Xoliqova Dilnavoz

O' R QK Akademiyasi HTM PK MO markazi dotsenti

Annotatsiya: *ushbu maqolada oliy ta'limni rivojlantirish omillari, pedagogning psixologik bilimlari va malakasining ta'lim samaradorligiga ta'siri, ta'limni tashkil etishdagi roli borasida fikr yuritilgan. Yetuk olimlarning pedagogik psixologiya borasidagi fikrlari qiyosiy tahlil qilingan.*

Kalit so'zlar: *oliy ta'lim, ta'lim taraqqiyoti, o'qitish sifati, pedagogik psixologiya, aqliy bilish, ilmiy tahlil, ta'lim texnikasi.*

Pedagogik faoliyat psixologik bilimlarsiz mavjud emas. Ya'nikim, har qanday ta'lim-tarbiyada psixologik yondashuvlar mavjud bo'ladi. Bu ikkisi qorishik. Ta'lim sifatini oshirish uchun psixologik bilimlarning o'rni beqiyosdir. Shu o'rinda aytish lozimki, harbiy kadrlarni tayyorlash sifatini oshirish, buning asl negizi harbiy pedagog kadrlarni zamonaviy harbiy ta'lim talablariga javob beradigan sifat ko'rsatkichini oshirish kunning ustivor vazifalaridan hisoblanadi.

Prezidentimiz Sh.Mirziyoev "Yangi O'zbekiston strategiyasi" nomli kitobida : "Nafaqat yoshlar, balki butun jamiyatimiz a'zolarining bilimi, saviyasini oshirish uchun avvalo ilm-ma'rifat, yuksak ma'naviyat kerak. Ilm yo'q joyda qoloqlik, jaholat va albatta, to'g'ri yo'ldan adashish bo'ladi.

Yeng katta boylik - bu aql-zakovat va ilm, yeng katta meros- bu yaxshi tarbiya. Yeng katta qashshoqlik- bu bililmsizlikdir!

Shu sababli hammamiz uchun ilg'or bilimlarni o'zlashtirish, chinakam ma'rifat va yuksak madaniyat egasi bo'lish uzluksiz hayotiy ehtiyojga aylanishi kerak", deganlar. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, kadrlar tayyorlash sifatiga e'tibor so'nggi besh yillikda tubdan o'zgardi. Darhaqiqat, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 20-apreldagi "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2909-sonli qarori oliy ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish, mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish borasidagi ustivor vazifalarga mos holda, kadrlar tayyorlashning ma'no-mazmunini tubdan qayta ko'rib chiqish, xalqaro standartlar darajasida oliy malakali mutaxassislar tayyorlash uchun zarur sharoitlar yaratish maqsadida qabul kilindi.

Pedagogikaning eng katta muammolaridan biri sifatida qanchalar ta'lim berish sifati yuqori bo'lmasin, pedagog qancha harakat qilmasin, o'zlashtirish natijalari istalgandek yuqori bo'lmasligini keltirib chiqarishini aytish mumkin. Aynan shu kabi muammolarni o'rganish bugunning asosiy vazifasi bo'lib, o'zlashtirish qonuniyatlarini ochib berishni taqozo qiladi. Demak, bugungi pedagogikaning muhim vazifalaridan biri - ta'lim-tarbiya jarayonini yanada takomillashtirishning psixologik asoslarini ishlab chiqishdan iborat" [2. -B 448].

Ayni masalalarni ilmiy tahlil qilish, ta'lim texnikasi, o'qitish texnologiyalari, amaliy mashg'ulotlarni kuzatish, tahlil qilish ta'lim sifatini oshirishning psixologik qonuniyatlarini belgilaydi. "O'qiyman, juda ko'p o'qiyman, ammo eslab qololmiyman,... yoki o'qiymanu tushunmayman, bilaman, ammo javob bera olmayman" kabi jumalarni juda ko'p eshitamiz,

uchratamiz, bunday holatlarni ilmiy o'rganishda albatta intellektni rivojlanish qonuniyatlari, psixologik bilish jarayonlari darajasi, shaxsning individual-tipologik xususiyatlari, xullas, inson psixologiyasiga murojaat qilish lozim.

Bugun ta'lim tizimini, o'qitishning sifat o'zgarishlarini tahlil qilar ekanmiz, bevosita ilmiy psixologik bilimlarga tayanamiz. Masalan, pedagog kursant bilan ta'lim jarayonida munosabatlarga kirishar ekan, o'z-o'zidan muomala madaniyati, ma'lumotlarni yetkazish texnikasi, auditoriyani boshqarush metodi va eng muhimi kursantlar psixologiyasini o'rganib, ularning talabi va ilmiy saviyasi, bilish darajasidan kelib chiqib ta'lim jarayonini tashkil etishi talab etiladi. Buning uchun esa pedagogda psixologik bilimlar zahirasi bo'lishi kerak. Pedagogik faoliyat "inson-inson" munosabatlari asosida tashkillashtiriladi. Harbiy pedagog kasbi ofitser faoliyatidan anchagina farq qiladi. Ta'lim jarayoni ofitserdan juda katta mas'uliyat talab qiladi. Chunki mashg'ulotlar samaradorligiga hamisha ham qattiqqo'llik, buyruq bilan erishib bo'lmaydi. U ta'lim berish jarayonida kursantlarni shaxs sifatida va albatta kasbiy rivojlantiradi. Pedagog o'z faoliyati davomida jonli psixologiya, individning pedagogik ta'sirga qarshiligi kabi muammolarga duch keladi. Shunday ekan, o'zini hurmat qiladigan, o'z kasbini sevadigan, o'z faoliyatida natijalarga erishishni istagan har bir pedagog - xohlasa xohlamasa psixolog bo'lishga majbur va albatta bu faoliyati davomida psixologik tajribalarga ham ega bo'ladi. Bu bilimlar keyingi pedagogik faoliyatida ta'limni tashkil etish va sifatini oshirishda kerakli yordamni beradi.

Ta'limning psixologik tomondan o'rganishning harbiy pedagoglar faoliyatidagi o'rni beqiyosdir. Chunki amaliy mashg'ulotlar harbiy pedagogikada asosiy ta'lim mashg'ulotlari turi hisoblanadi. Harbiy kasbiy ta'lim nazariy bilimlarni amaliy ko'nikma va malakalar bilan uyg'unlikda berilishini talab etadi. Shu sababdan pedagog amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish, olib borish istiqbollarni harbiy psixologik bilimlar bilan belgilay oladi. aynan bu sohada bilimlarni "Ta'lim psixologiyasi" fanidan o'rganamiz. Pedagogik psixologiya tushunchasi bo'yicha olimlarning turli tuman ta'riflari bor. Xususan, B.G. Ananov ta'biri bilan aytganda: "Pedagogik psixologiya –pedagogik va psixologiya fanlarini birlashtirib turuvchi, o'rganuvchilarning ta'limi va tarbiyasi va ularni rivojlantirishni birgalikda o'rganadigan chegaralangan, bir butun uyg'unlikdagi bilimlar jamlanmasidir [3. –B 158]. B.G. Ananovning ushbu nazariyasi ko'pgina pedagog olimlarning fikrlari bilan bir xil bo'lmasada, fanning sodda ta'rifi deb qabul qilsak bo'ladi va bu ta'rifni bevosita "Ta'lim psixologiyasi" faniga nisbatan ham qo'llash mumkin. ushbu fan harbiy ta'limda yangi fan hisoblanadi. "Harbiy ta'lim psixologiyasi" shu kungacha harbiy psixologiya va harbiy pedagogika doirasida o'rganilib kelingan. Mamlakatimizda keyingi yillarda harbiy pedagogik faoliyat va harbiy pedagoglarni tayyorlashga bo'lgan e'tibor oshganligini hisobga olib, ushbu fanni mustaqil o'rganish ehtiyoji sezildi. Chunki harbiy pedagogik jarayon mas'uliyatli, jiddiy yondashuv talab etadigan, bo'lajak ofitserlarni tayyorlash kabi muhim yondashuvni talab etadi. Shunday ekan, bugungi harbiy ta'lim ofitser pedagogdan psixolog bo'lishni talab etmoqda. Sababi yoshlarning dunyoqarashi, soat sayin rivojlanib borayotgan ilm-fan, sohadagi ilmiy yangiliklar ofitser-pedagog oldida jiddiy qiyinchiliklarni tug'diradi. Turli tuman informatsiya oqimlari, globallashtirilgan internet ma'lumotlar bazasi va ulardan foydalanish imkoniyatining harbiy ta'lim tizimiga kirib kelishi, xususan, harbiy ta'lim integratsiyasi ham ta'lim psixologiyasini o'rganishni talab etmoqda.

An'anaviy pedagogik psixologiya uch bo'limdan: ta'lim psixologiyasi, pedagog psixologiyasi va tarbiya psixologiyasidan iborat. Unga asoslangan holda harbiy ta'lim psixologiyasi fani ikki qismdan: harbiy ta'lim psixologiyasi, harbiy pedagog va kursant psixologiyasidan iborat.

N.F. Talizina, pedagogik psixologiya avvalo ta'lim jarayoni, ta'lim tuzilishi, ta'lim jarayonining tashkil etilishi va borishi, ta'limni rivojlantirish yo'llari, samaradorlikni oshiruvchi omillar, ta'lim sharoiti va moddiy ta'minoti kabi masalalarni o'rganishi lozim, degan fikrni ilgari suradi. V.A. Kruteskiy: Pedagogik psixologiya – bilim, ko'nikma va malakalarni egallash qonuniyatlarini o'rganish va bu jarayonlarning individual farqlarini, psixik o'zgarishlarni ilmiy tahlil qilishdir[4. –B 202], degan fikrni ilgari surgan.

I.A. Zimnyaya: pedagogik psixologiya:

- 1) pedagogik faoliyat psixologiyasi;
- 2) o'quv jarayoni va kursant faoliyati psixologiyasi;
- 3) pedagog faoliyati psixologiyasi;
- 4) pedagogik hamkorlik va o'zaro munosabat psixologiyasi qismlariga ajratadi[5. –B74].

Hozirgi vaqtda turli olimlar pedagogik psixologiyani turlicha bo'limlarga ajratmoqdalar.

Biz esa ularning fikrlariga tayangan holda Ta'lim psixologiyasi – o'qitish jarayonini tashkil etish, olib borish va natijaga erishishning psixologik jihatlarini o'rganadi, degan fikrni ilgari suramiz.

Juda ko'p olimlar ushbu fanni o'rganish va rivojlanishiga xizmat qilganlar: ta'limda boshqaruv muammosi N.F. Talizina, L.H. Landa; ta'lim psixologiyasi B.C. Lazarev; umumlashtirilgan usullar yordamida o'zlashtirish jarayonlarini o'rganish V.V. Davidov, V.V. Rubsov; o'qish motivatsiyasi A.K. Markova, Yu.M. Orlov; o'zlashtirishga ta'sir qiladigan individual-psixologik faktorlar, G.A. Sukerman; o'rganuvchi va pedagogning shaxsiy o'ziga xosliklari B.C. Merlin, N.S. Leytes, A.N. Leontev, V.A. Kan-Kalik kabi olimlar turli yo'nalishlarda tadqiqot ishlarini olib borganlar[6. –B 62].

Xususan, psixologik bilish jarayonlarining ta'lim jarayonida rivojlanishini L.S.Vigotskiy: ta'lim psixikaning rivojlanishini yo'naltiradi, shu bilan birga bu jarayonda ongli faoliyatning yangi, mutlaqo boshqacha shakllari yaratiladi; P.P.Blonskiy: tafakkur kichik maktab yoshida o'yinlar bilan, o'spirinlik yoshida o'qish bilan bog'liq tarzda rivojlanadi; S.L.Rubinshteyn: ong faoliyatda paydo bo'lib, ana shu faoliyatda shakllanadi; B.M.Teplov: qobiliyat faqat rivojlanishda mavjud bo'ladi, lekin rivojlanish faoliyat jarayonidan boshqacha muhitda yuz bermagandek, qobiliyat yaqqol faoliyatdan ajralmagan holda paydo bo'la olmaydi[7. –B128], kabi fikrlari bilan izohlashgan.

Demak, tadqiqot obyektlariga qarab xulosa qilish mumkinki, harbiy ta'lim psixologiyasi kursantlar ta'lim jarayonini boshqarish masalalarini, ta'lim jarayonini, bilish jarayonlarini, ilmiy tafakkur qilish, kasbiy qobiliyatlarni shakllantirish uchun pedagog uchun muhim ilmiy asos hisoblanadi. Ta'lim jarayonini psixologik asoslarini o'rganish zamonaviy pedagogikaning muhim talabi bo'lib, u o'qituvchi va tinglovchi munosabati, o'zlashtirish sifati, o'qitish omilkorligi ta'minlaydi.

1. Мирзиёев Ш. Янги Ўзбекистон стратегияси. -Тошкент. Ўзбекистон нашриёти, 2021. 464 б.
2. Nishonova Z.N. Rivojlanish psixologiyasi. Pedagogik psixologiya. -Т.: “O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati”. 2018. -600б.
3. Беспалько Ю.В. О возможностях системного подхода в педагогике. -М.: 476с.
4. Ibragimov X.I. Pedagogik psixologiya. “O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati”. 2009. -400б.
5. Сейтхалилов Э.А., Тожиев М. Педагогическая технология: опыт практического применения и системно-содержательного анализа. -Т.: «Tafakkur bo‘stoni», 2012, 256 с.
6. Ochilov V. Oliy maktab pedagogikasi. -Т.: “Aloqachi”. 2008. 304 б.
7. Pedagogik aksiologiya. -Т.: “Fan va texnologiya”, 2013,184б.